

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ
ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИНГЛИЗ ТИЛШУНОСЛИГИ КАФЕДРАСИ**

ТИЛ ВА ТИЛ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ

**(Инглиз тилшунослиги кафедраси олимаси
М.Қ.Абдуллаева таваллудининг 80 йиллигига
бағишланади)**

**мавзусидаги Университет миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-амалий анжумани материаллари
ТЎПЛАМИ**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**30-oktabr
2020-yil**

OUR KNOWLEDGE IS A BIG SUCCESS IN LIFE

**Department
Eng**

**SOAT
10:00**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI XORIJIY TILLAR FAKULTETI
INGLIZ TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI
TIL VA TIL O'QITISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI**

**UNIVERSITET ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMANI
(KAFEDRA OLIMASI M.Q.ABDULLAYEVA TAVALLUDINING 80
YILLIGIGA BAG'ISHLANADI)**

**QAYSI TILLARDA
O'ZBEK, RUS, INGLIZ**

**Manzil: Buxoro davlat
universiteti,
Buxoro shahar M.Iqbol
ko'chasi 11-uy.**

БУХОРО – 2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ
ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИНГЛИЗ ТИЛШУНОСЛИГИ КАФЕДРАСИ**

ТИЛ ВА ТИЛ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ

**(Инглиз тилшунослиги кафедраси олимаси
М.Қ.Абдуллаева таваллудининг 80 йиллигига
бағишланади)**

**мавзусидаги Университет миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-амалий анжумани материаллари
ТЎПЛАМИ**

БУХОРО – 2020

ва ёқимли шаҳар эди. Дунёда ҳеч бир жойни бу шаҳарнинг гўзаллиги ва бойлиги билан таққослаб бўлмас эди”¹.

Стейнбекнинг биринчи романи муваффақиятга учрамаган бўлса-да, асар пафоси жуда изчил тасвирланган. Жой номлари, шаҳарлар кенг ва раён тасвирланган бўлиб, китобхон беихтиёр Генри Морган билан бирга саргузаштлар излаб саёҳатга чиқади. Асар орқали муаллиф бебаҳо маълумотларни китобхонга қизиқ тарзда ёзиб қолдиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Засурский Я. Американская литература XX века. - М.: Издательство М.У., 1985.
2. Steinbeck J. Cup of Gold. N.Y: Penguin books, 2001.
3. High, Peter B. An Outline of American Literature. – USA.: Longman, 2000.
4. <https://sits.sjsu.edu/curriculum-resources/cup-of-gold/setting/index.html>

O.HENRI - INSON RUHIYATINING KUCHLI BILIMDONI

Sadullayev F.B.

Ingliz adabiyotshunoslig kafedrasi o'qituvchisi;

Olimova X.M., talaba.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amerika adabiyotining zabardast vakili O.Henri ijodi, asarlarining o'ziga xos qirralari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: O.Henri, adabiyot, hikoya, ruhiyat, tasvir, mavzu.

Jahon adabiyoti - bitmas-tuganmas xazina. Undan foydalanish, boyliklarini o'zlashtirish - yuksak fazilat. Yillar o'tgani sari bu noyob xazinaning salmog'i oshib, osori-atiqalari ko'payib boraveradi. Mashhur amerikalik hikoyanavis adib O.Henrining ijodiyoti ana shu xazinada alohida fusun va tarovatga egadir. Uning favqulloda noyob iste'dodi, hajviyot bobidagi betakror qobiliyati hali-hanuz yirik adabiy kechalarda, xalqaro simpoziumlarda e'tirof etiladi. Asli ismi Uilyam Sidney Porter bo'lgan yozuvchining ijodi qanchalar optimistik ruh, ko'tarinki kayfiyat bilan yo'g'rilgan bo'lmasin, turmush tarzi bir tekis kechmadi. Beshafqat hayot uni kulib emas, kuldirib yashashga majbur qildi.

Uning birinchi hikoyalar to'plami 1904 yilda “Karamlar va qirollar” (“Cabbages and Kings”) nomi bilan nashr etildi. Xuddi Edgar Po, B.Gart va Mark Tven singari chinakam amerikaliklar ruhini, tashvishlariyu kamchiliklarini, jamiyatni bir chekkasidan yemirayotgan illatlarni, aholining boylik, shuhrat, mansabu unvon ilinjidagi turmush tarzini achchiq kesatiqlar, kulgili iztiroblar, kinoyalar orqali mahorat bilan ochib bergan adibning kitobi tezda qo'lma-qo'l bo'lib ketdi.

¹ <https://sits.sjsu.edu/curriculum-resources/cup-of-gold/setting/index.html>

Shundan so'ng, O.Henrining to'plamlari birin-ketin dunyo yuzini ko'ra boshladi. 1906 yilda "To'rt million" ("The four million"), 1907 yilda «So'nmas chiroq» ("The trimmed Lamp"), "G'arb yuragi" ("Heart of the West"), 1908 yilda «Shahar ovozi» ("The Voice of the City"), «Oliyjanob o'g'ri» ("The Gentle Grafter"), 1909 yilda "Taqdir yo'llari" ("Roads of Destiny"), "Saylanma" ("Options") va 1910 yilda "Ishbilarmonlar" ("Strictly Business") hamda "Girdoblar" ("Whirligigs") nomli kitoblari dunyo adabiyoti ixlosmandlari qalbiga yo'l topa oldi. Uni butun sayyorada munaqqidlar hech ikkilanmay "qisqa hikoyalar qiroli" deb atay boshladi. Porteriga tegishli bo'lgan hajman kichik, ma'no jihatidan salmoqli asarlarini ayrim tanqidchilar hatto ba'zi mashhur romanlardan ustun qo'ygan chog'lar ham bo'lgan. Haqiqatan ham, O.Henrining ko'plab hikoyalarida ko'tarilgan mavzular dolzarbligi va butun insoniyatga birdek aloqadorligi bilan yuksak pog'onalarda turadi.

Uyg'oq qalbi hamisha odamlar ichiga tortib, asarlarida xalqona ruh ufurib turuvchi adibning qahramonlari rang-barang: millionerlar, kovboylar, chayqovchifiribgarlar, ruhoniylar, kir yuvuvchilar, bezorilar, sarmoyadorlar, siyosatchilar, adiblar, artistlar, rassomlar, ishchi-muhandislar, o't o'chiruvchilar va hokazo. U hikoyalarida ana shu qahramonlarning holatiga tushar, bir lahza bo'lsa-da, ular bilan birga yashardi. Shu sababli ham O.Henrining asarlarida ortiqcha pafoslarga berilish, bo'rtirma, yuzaki metaforalarni uchratmaymiz. Balki haqqoniy iste'dodni, real turmush chig'iriqlari asnosida sinovlarda toblangan tajriba maktabi mahsulini his qilamiz.

O.Henri inson ruhiyatining kuchli bilimdoni ekanini "So'nggi yaproq", "Oliyjanob o'g'ri" hikoyalari orqali yuksak pardalarda ifodalay oldi. Katta hayot bo'sag'asida turgan ikki talaba qizning ("So'nggi yaproq") jamiyat bilan bevosita bog'liq va ayro holda tushkun kayfiyatga berilishi, omadsiz qari rassomning "so'nggi shoh asari" tufayli yana optimistik hayotga qaytishi zamirida O.Henrining adib sifatidagi portretini chizish mumkin. U chuqur ruhiy holatlarni shu darajada ustalik bilan qalamga oladiki, natijada o'quvchining kayfiyatiga, kayfiyati orqali yuragiga qo'l soladi. Hikoyani mutolaa qilishga kirishgan odam yakunda voqealar rivoji qay darajada yechim topishini bashorat qilolmaydi. Shu tomondan ham Uilyam Porterning matematik qobiliyatiga qoyil qolmay iloj yo'q. Uni shu nuqtai nazardan "hikoyanavislik matematikasi asoschisi" deyish mumkin. Keyinchalik adabiyotga kirib kelgan, dunyo tan olgan qator mahalliy va xorijiy adiblarga O.Henrining hikoyachilik maktabi katta saboq berdi. Uning lo'nda qilib, "bir jumla"ga sig'dirilgan asarlaridan ilhomlanib, ko'plab nosirlar qalam tebratdi, yangi natijalarga erishdi. Xususan, Sh.Anderson, T.Drayzer, B.Gext, G'.G'ulom, A.Qahhor va boshqalar nomini sanab o'tishning o'zi kifoya qiladi. O.Henri uslubida yozuvchi adiblarning safining sezilarli darajada kengayib ketishida Uilyam Sidney Porterning hikoya yozish texnikasidagi yupatuvchanlik ruhini ifodalash, aylana fabula, ya'ni ikki tomonlama ma'no yuklash san'ati, timsollarni niqoblar ortida aks ettirish mahorati, so'z o'yini, muammoni qo'yish va to'laqonli xulosaga kelish hamda yashirin iqtiboslar ishlatish tajribasi muhim omil bo'ldi.

<i>Akramov I.I.</i> The aphorism and the aphoristic style of communication.....	65
<i>Ruzieva N.Z.</i> Spirituality term in scientific approach.....	68
<i>Kobilova A.B., Salimova D.</i> Obsolete and newly accepted idioms in English language with their origins.....	70
<i>Kobilova A.B., Shirinova Sh.</i> Lexical meaning versus grammatical meaning.....	73
<i>Kobilova A.B., Abdurakhmonova M.</i> Multilingualism and its importance.....	76
<i>Kobilova A.B.</i> What is Periphrasis?.....	79
<i>Rasulov Z.I., Saidov X.Sh.</i> Reduction as the way of the language economy manifestation	83

2-ШЎЪБА: АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ЖАМИЯТ

<i>Vokhidova N.N.</i> The depiction of evil in Shakespeare’s “Macbeth”.....	91
<i>Najmiyev M.M.</i> Sharq adabiyotidagi pand-nasihat ruhida bitilgan asarlar tahlili.....	93
<i>Rўzieva D.C.</i> Интуллектуал романнинг ўзига хос хусусиятлари.....	96
<i>Naimova A.M., Raximova S.</i> Tarixiy inversiyaning adabiyotdagi o`rni va uning turlari.....	98
<i>Ganieva O.Kh., Charieva M.J.</i> Detective elements of Uzbek literary works ...	100
<i>Axmedova C.X.</i> Эпик кўмакчи қахрамоннинг бадий вазифалари.....	102
<i>Fаниева O.X., Садуллаев Ф.Б.</i> Одил Ёқубовнинг ўзига хос ривоя услуби ва бадий тасвир маҳорати.....	105
<i>Xabibullayeva R.M., Safojeva M.G.</i> O`zbek va jahon adabiy aloqalari.....	108
<i>Холикова Н.Н.</i> Детектив-криминал сўзларнинг характер яратиш, бадий-фалсафий мазмунни ифода этишдаги вазифалари.....	114
<i>Fаниева O.X., Эргашева М.Б.</i> Жон Стейнбекнинг “Олтин пиёла”си хусусида.....	117
<i>Sadullayev F.B., Olimova X.M.</i> O.Henri - inson ruhiyatining kuchli bilimdoni.....	119
<i>Саидова М.У.</i> К. Болдикнинг «The concise Oxford dictionary of literary terms» луғатидаги адабиётшунослик терминларининг этимологик таҳлили.....	121
<i>Saidova Z.X.</i> Ernest Хемингуей ijodida zamon va qahramon masalasi.....	124
<i>Saidova Z.X.</i> Symbolism of setting and characters in “The old man and the sea” by E.M.Hemingway.....	125
<i>Qobilova N.S.</i> muallif va asar qahramoni hayotidagi o`xshashliklar.....	127
<i>Норова Р.Ф.</i> Эртактлар тилсимотини очиш калити.....	131
<i>Норова Р.Ф.</i> Ж.Р.Киплинг ҳикояларининг талқини.....	133